



## CHO'LPON SHE'RIYATIDA QO'LLANILGAN OKKAZIONAL BIRLIKLARNING POETIK XUSUSIYATLARI

Abduraximonova Sofiya

NavDU O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15211808>

### ARTICLE INFO

Received: 31th March 2025

Accepted: 10<sup>th</sup> April 2025

Published: 14 th April 2025

### KEYWORDS

*Cho'lpon she'riyati, okkazional  
ma'no, okkazional so'zlar.*

### ABSTRACT

*Abdulhamid Cho'lpon she'riyatida qo'llanilgan okkazional birliklar va ularning she'riyatdagi ahamiyati aks ettirilgan. Cho'lpon she'riyatining rang-barangligi, uning she'rlarida ozodlikka ishonch, erkinlik, taraqqiyparvarlik, ma'rifat g'oyalari okkazional birliklar orqali keng ifodalangan. Milliy-madaniy va ma'naviyatini yuksaltiruvchi she'riy misralar tahlil qilingan.*

Okkazional birlik so'zlovchi yoki ijodkor tomonidan o'z fikr va maqsadini o'ziga hos tarzda va aniq ifodalash, o'zlari tasvirlayotgan biror shaxs, narsa, obyekt, voqea- hodisalarni barcha qirralari bilan namoyon etish hamda ularga nisbatan o'z munosabati, ya'ni his-tuyg'ularini yorqin ifodalash maqsadida yaratiladi va qo'llaniladi. Cho'lpon serqira ijodkor bo'lib uning asarlari hammaga birdek manzur bo'ladi. Cho'lpon xalqimiz uchun og'ir sinov davri hisoblangan 20-30 yillarda chin vatanparvar, haqiqiy istiqlol kuychisi va kurashchisi sifatida namoyon bo'ldi. Bugun uning qadriga yetish, ardoqlash, vasiyatlarini amalga oshirib, mustaqilligimizni mustahkamlash biz, farzandlarining muqaddas burchidir.

Men izlagan eski izlar, bilmadimki, qolgaymi, yoki o'chib ketganlar?

Sahfalarda o'rinlashgan kitoblar yolg'onmi yo silinib bitganlar?

Yuqoridagi misrada shoir "silinib" so'zini qo'llaydi. Misraga nazar tashlasak: "Kitob sahifalarida yozilgan so'zlar yolg'onmi yoki xato, ko'r-ko'rona bitilganmi?", - ma'nosi anglatgan.

Cho'lponning "Tong" she'rida qo'llanilgan "cho'zanak" so'ziga e'tibor beramiz. Cho'zanak so'zi izohli lug'atda mavjud emas, o'shbu so'zning asil ma'nosi so'zanak.

So'zanak- nenachi ma'nosini bildiradi, shoir so'zanakning yerda cho'zilib yotganiga ishora qilib, uni cho'zanak deb ataydi:

Ey cho'zanak, dedim, jonsiz yotma,

Qanotchangni vizillatib uchgil.

Uchib gulzorlarga borib tushgil,

Deydi : g'ofil tong otguncha shoshma (Cho'lpon, "Tong")

Erk kuychisi Cho'lpon tomonidan qo'llangan cho'zanak ramziy o'xshatishdir, bu so'z ma'rifatsizlik, jaholatga nisbatan befarq yotgan xalqqa nisbatan da'vat ma'nosida qo'llangan. Ijodkor okkazional birlikdan vosita sifatida foydalangan.

“Tong” she'rida ijodkor “yo'rtmoq” so'zini qo'llaydi. Yo'rtmoq so'zi she'rda “yuqorilamaoq, tez yurmoq, shamol kabi yelmoq, ozodlikka erishmoq” kabi ma'nolarni ifodalagan. Ko'p harakat qildik, ammo ozodlikka erisha olmadik kabi ma'nolarni ifodalaydi.

Ko'p qo'zg'oldik, ko'p to'lg'ondik, biroq

Og'ir zanjirlarni uzolmadik.

Qo'limizdan kelmay qoldi yo'rtmoq,

Zo'r to'siqni oshib o'tolmadik... (Cho'lpon “Tong”)

O'zining erkin qarashlarini o'z she'rlariga singdira olgan adib, yuqoridagi to'rtlik orqali

Sovet istilosiga qarshi kurasha olmagan xalqimizni uyg'otish, o'z erki va ozodligi uchun kurashishi kerak ekanligini da'vat etadi.

Cho'lponning “Yorug' yulduz” she'rida “osig'lab” so'zi ishlatilgan. “Osig'lanib” so'ziga e'tibor beradigan bo'lsak, she'rda foydalanmoq ma'nosini ifodalab kelgan.

Go'zal yulduz, nurli yulduz, te so'zla

Otalarning tarixidagi xatosin;

Shul xatodan osig'lanib yovlarning

El ko'ksida surgan ishrat, safosin.

Adib bu she'ri orqali nima demoqchi? Yulduzni undalma qilib, undan so'ramoqda otabobolarimiz xatosini, shu xatolar orqali (xalqimizning bo'ysunishi) yovlar bizdan foydalangani haqida aytib o'tadi.

Cho'lponning “Uyqu” she'ridagi “olos” so'ziga e'tibor beradigan bo'lsak, olos so'zi izohli lug'atda mavjud emas, so'z qo'llashda usta adib bu she'rda “mastona”, “jununli” ma'nolarida qo'llagan.

Ul olos ko'zlar yumilgan... kuyni yondirgachgina,

Ko'p go'zal ko'zlarni yumdirgach, uyaltirgachgina...

“Ul jununli, mastona ko'zlar yumilgan”, - ma'nosida kelgan.

Cho'lponning har bir she'rida vatanga bo'lgan muhabbat, erkinlik va ozodlik ruhi sezilib turadi. Cho'lponning ijodiy uslubini belgilashda uning millat va mamlakat hayoti, taqdiri va istiqbolini ifodalovchi g'oyalar, mavzularning badiiy-estetik talqinini voqelikka estetik munosabat qonuniyati asosida tahlil qiladi. Cho'lpon qaysi mavzu, muammoga qo'l urmasin, u Sharq-G'arb muammolari bo'ladimi, tabiat manzarasimi, ishq-muhabbat kechinmalarimi, millat tarixi yoki istiqbolimi, erk orzusimi – barchasida shoir millatparvar lirik qahramon siyomosida namoyon bo'ladi.

Cho'lponning “Men va boshqalar” nomli she'rida “inglagan” so'zidan foydalangan.

Kulganlar boshqalardir, yig'lagan menman,

O'ynagan boshqalar, inglagan menman.

Erk ertaklarini eshitgan boshqa,

Qullik qo'shig'ini tinglagan menman....

Inglamoq so'zi- izohli lug'atda mavjud emas. Inglamoq so'zini tahlil ostiga olsak, "ing-chaqaloqning yig'isiga o'xshash ovoz" ,ing+ la = ingla .Bu so'zni yig'lamoq, ingramoq deb tushunishimiz ham mumkin. Erk kuychisi Cho'lpon tabiri bilan tahlil qiladigan bo'lsak bu so'z-implagan, harakat qilgan, intilgan ma'nolariga ega . Adib kulgan boshqalar, yig'lagan menman, o'ynagan boshqalar o'ylagan, harakat qilgan menman kabi ma'nolar ifodalagan. Adib har bir so'zni o'rinli qo'llab, o'ziga hos okkazonal so'zlarni vujudga keltirgan.

Cho'lpon "Navro'z kunida" nomli she'rida "mala'natlar" so'zini qo'llaydi. La'nat so'zi hammaga ma'lum.Cho'lpon mala'nat so'zi orqali ma'lomad, dashnom,ko'ngil xiraliklari kabi ma'nolarni ifodalaydi.

Ko'klardagi dona-dona sochilgan

Yulduzlarmi ezgu kunni olqishlar?

Kimga tegar yulduz ko'zdan o'tilgan

Achchiq,gina, mala'natlar,qarg'ishlar?

Yuqoridagi she'rda mala'nat so'zi – ma la'nat kabi urg'uli so'zga kabi talqin qilish ham mumkin, ammo asil ma'nosi - ma'lomad,dashnom kabi ma'nolarni anglatmoqda.

"Navro'z kunida" she'rida oqinlar va sanmaylar so'zlarini ishlatadi.

Ko'chalardan er-qizlardan oqinlar,

Tutqunlarning yonlariga kirmaylar.

Qarorlarga ularni ham olmaylar,

Tutqunlarni kishiga ham sanmaylar...

"Oqinlar" so'zi, asosan, eski o'zbek adabiyotida yoki she'riyatida ishlatiladigan so'z bo'lib, "oqin" yoki "oqinlar" deb aytilganda, u insonlar yoki guruhlarini, ayniqsa o'z maqsadlari, g'oyalarini ifodalovchi va targ'ib qiluvchi shaxslarni tasvirlashda ishlatilgan. "Oqin" so'zi "og'zaki nutq" yoki "so'zlab berish" ma'nolarini anglatadi, shuningdek, "oqin" so'zi yengil va oqilona nutq so'zlashni ham ifodalaydi. Yuqoridagi "oqin" so'zi, og'zaki nutq yoki gap-so'zlarni o'tkazuvchi, jamiyatda fikrlarini ifodalovchi kishilarni ifodalaydi. She'rda "oqinlar" ko'chalarda er-xotinlardan farq qilib, tutqunlarning yonlariga kirishga, ularning holatini tushunishga intilmasliklari tasvirlanmoqda.Bu yerda "oqinlar" jamiyatning o'z fikrlarini erkin ifoda eta oladigan vakillarini bildirgan bo'lishi mumkin.

Sanmaylar so'zi "sanamaydi, odam o'rnida ko'rmaydi" ma'nolarini ifodalagan.

Okkazonal birliklar adib ijodiy mahsuli bo'lib, o'z dunyo qarashlarini va fikrlarini ifodalashda yordam beradi. Bizga noaniq bo'lgan terminlarni oddiy o'z tilida ifoda etadi.Bu esa o'quvchiling tushuni uchun yordam beradi, uslubiy buyoqdorlikdan ham ancha holi hisoblanadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbek tilining izohli lug'ati, 2014–2025
2. Badiiy til muammolari. // "Inqilob va Adabiyot" Toshkent.19773.Fitrat "Tanlangan asarlar" Toshkent. " Ma'naviyat"2009.
3. Abdulhamid Cho'lpon "Buloqlar quchog'ida" Toshkent.2023

4. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. "Sharq". Toshkent-2004.
5. Cho'lpon-Yana oldim sozimni. Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi Nashriyot Toshkent1991.
6. Cho'lpon-Asarlar. Uch jildlik. Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi nashriyot Toshkent I, II jildlar. 1994-95.

